

Litsenziyani olish, qayta rasmiylashtirish, amal qilishini to'xtatish va dublikat olish uchun zarur hujjatlar

Litsenziya olish uchun litsenziya talabgori quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

litsenziya berish to'g'risida ariza, unda quyidagilar ko'rsatiladi: yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli, uning joylashgan joyi (pochta manzili), bank muassasasining nomi va bank muassasasidagi hisob raqami, litsenziyalanayotgan faoliyatning (uning bir qismining) yuridik shaxs tomonidan amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan turi;

litsenziyalovchi organ tomonidan litsenziya berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjat;

litsenziyalovchi organ tomonidan belgilanadigan shakl bo'yicha mutaxassislarining malaka tarkibi to'g'risida tegishli hujjatlar (mehnat daftarchasining, ma'lumoti yoki maxsus tayyorgarligi to'g'risidagi hujjatlarning nusxalari) ilova qilingan ma'lumotlar;

litsenziyalovchi organ tomonidan belgilanadigan shakl bo'yicha litsenziyalanayotgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik bazaning mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Litsenziyani qayta rasmiylashtirish uchun litsenziat hujjatlar taqdim etadi:

yuridik shaxs-litsenziat qayta tashkil etilgan, uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgarishiga to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi tegishli hujjatlar ilova qilingan holda litsenziyani qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza;

litsenziyalarni qayta rasmiylashtirishda litsenziya talabgorining litsenziya berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan va ariza berilgan kunda amalda bo'lgan eng kam oylik ish haqining yarmi miqdorida to'langan yig'imning to'lov topshiriqnomasini nus'hasini.

Litsenziyaning amal qilishini to'xtatish uchun litsenziat quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

litsenziyaning asl nus'hasini ilova qilgan holda litsenziyaning amal qilishini tugatish to'g'risida ariza.

Litsenziyaning dublikatini olish uchun litsenziat quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan litsenziya o'rniga litsenziyaning dublikatini berish to'g'risidagi litsenziatning arizasi;

ommaviy axborot vositalarida yo'qolgan yoki yaroqsiz holga kelgan litsenziyaning haqiqiy emasligi to'g'risida axborot e'lon qilinganligini tasdiqlovchi axborot e'lonlar.

litsenziatning litsenziya dublikatini berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilganligi uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan va ariza berilgan kunda amalda bo'lgan eng kam oylik ish haqining yarmi miqdorida to'langan yig'imning to'lov topshiriqnomasini nus'hasini.